Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.433

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV FAOLIYATI – O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVI FONDLARIDAGI MA'LUMOTLARDA (MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXONOV TAVALLUDIGA 145 YIL TO'LDI)

Hayitov Shodmon Ahmadovich
Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi,
tarix fanlari doktori, professor
E-mail: shhaitov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik va milliy ozodlik harakati yirik namoyondasi, sovet hokimiyati tomonidan qatag'onga tortilgan Munavvar qori Abdurashidxonovning ma'rifatchilik va mustaqillik uchun kurashlar faoliyati haqida O'zbekiston Milliy Arxivining ayrim fondlarida saqlangan ma'lumotlar asosida imkon qadar fikr-mulohazalar bildiriladi. Shuningdek, Munavvar qori Abdurashidxonovning millatparvarlikka qaratilgan faoliyati imperiyachilik Rossiya hukumati qoliplariga mos tushmaganligi bilan ayrim jihatlar birlamchi manbalar tahlili orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: jadid, taraqqiyparvar, "Ko'mak", "Umid", "Umid birodarligi", maktab, o'quv-qo'llanma, darslik, maslakdosh, ayg'oqchi, kitob do'koni, bosmaxona, targ'ibot, haj ziyorati, mudarris, milliy istiqlol.

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУНАВВАРА КОРИ АБДУРАШИДХАНОВА - В ИНФОРМАЦИИ В ФОНДАХ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА (145-ЛЕТИЕ СО ДНЯ РОЖДЕНИЯ МУНАВВАРА КОРИ АБДУРАШИДХАНОВА)

Аннотация: В данной статье выражены мнения, максимально на основе информатсии, хранящейся в некоторых фондах Натсионалного архива Узбекистана, о деятелности просветителства и борбы за независимост Мунаввара Кори Абдурашидханова, который был крупным представителем джадидизма и натсионально-освободителное движение, репрессированное советской властю. Кроме того, согласно анализу первоисточников, некоторые аспекты деятелности Мунаввара Кори Абдурашидханова, направленной на натсионализм, не были совместимы с моделями империалистического российского правителства.

Ключевые слова: джадид, прогрессивный, «Помощь», «Надежда», «Братство надежды», школа, учебник, учебник, профессиональный, шпион, книжный магазин, типография, пропагандистская молитва, паломничество, мударрис, национальная независимость.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

ACTIVITY OF MUNAVVAR KORI ABDURASHIDKHANOV - IN INFORMATION IN THE FUNDS OF THE NATIONAL ARCHIVE OF UZBEKISTAN (THE 145TH ANNIVERSARY OF THE BIRTH OF MUNAVVAR KORI ABDURASHIDKHANOV)

Annotation: In this article, opinions are expressed as much as possible on the basis of the information stored in some funds of the National Archives of Uzbekistan about the activity of enlightenment and struggle for independence of Munavvar Qori Abdurashidkhanov, who was a major representative of the Jadidism and national liberation movement, who was repressed by the Soviet authorities. Also, some aspects of Munavvar Qori Abdurashidkhanov's activities aimed at nationalism were not compatible with the patterns of the imperialist Russian government through the analysis of primary sources.

Key words: jadid, progressive, "Help", "Hope", "Brotherhood of Hope", school, textbook, textbook, professional, spy, bookstore, printing house, propaganda, pilgrimage, mudarris, national independence.

KIRISH. Mustaqillik yillarida sovet hukumati davrida qatag‘on qilingan va nohaq “panturkist”, “panturonchi”, “panislomchi” deb ayblanib, aybsiz aybdorlar sifatida qatl qilingan millatdoshlarimizdan ming-minglab shaxslarning nomlari oqdandi. Bu borada tarixiy haqiqatni tiklash maqsadida ayrim ishlar davom etmoqda. Jadidchilik va taraqqiyparvarlik harakatining markaziy siymolaridan biri, millat va yurt fidoyisi Munavvar qori Abdurashidxonov (1878 – 1931-yy) 145 yoshga to‘ldi. Bu tabarruk inson haqida ko‘p yozildi va ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar hamon davom etmoqda. Hukmingizga havola qilinayotgan mazkur maqolada Munavvar qori Abdurashidxonov timsoli O‘zbekiston Milliy Arxivi bir qator fondlarida qaydarajada talqin etilganligi bilan bog‘liq masalaga e’tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O‘zbekiston Milliy Arxivining I-17-fond (Sirdaryo viloyati boshqarsmasi) fondlarida saqlanayotgan bir qator yig‘ma jildlar bilan tanishish asnosida amin bo‘lindiki, Rossiya imperiyasi hukumati idoralari vatandoshimiz Munavvar qori Abdurashidxonovning har bir qadamini nazorat qilib turgan va ushbu insonni “xavfli kishilar” ro‘yxatiga avvalboshdanoq tirkab qo‘ygan. Munavvarqori Abdurashidxonov va uning “Ko‘mak” tashkiloti (1909 – 1923-yillar) haqida Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorligiga tegishli arxiv fondida ko‘pgina ma’lumotlar saqlangan. Shunday ma’lumotlardan birida: “Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentning Eski shahar qismiga qarashli Darxon mahallasida istiqomat qiladi. U 1904-yilda “Umid” (“Надежда”) to‘garagi rahbari bo‘lgan va o‘z atrofiga millatchi yoshlarni to‘plagan. Mahalliy xalq bolalariga bilim berish maqsadida 11 ta yangi usul maktablari ochdi. Toshkentning Eski shahar qismida, aholi orasida ma’rifatga chorlovchi targ‘ibotlar olib bordi. 1907-yilda Qo‘qonda bosilgan “Xurshid” gazetasiga muharrirlik qilgan”[1] – deb qayd etilgan. Bu o‘rinda Munavvarqorining maorifchilik va jurnalistik faoliyati XX asr boshlarida avj olganligi, bu esa Rossiya imperiyasi hukumatini tashvishga solganligidan voqif bo‘lamiz. Rus ma’murlari Munavvarqorining “Umid birodarligi” va “Ko‘mak” tashkilotlari orqali yoshlarni Turkiya (Usmoniylar saltanati) poytaxti Konstantinopol (Istanbul)ga o‘qish uchun yuborganligi, ular xorijdan “panislomist”, “panturkist” bo‘lib qaytayotganligi haqida tashvish bilan bir-birlariga maktublar, maxfiy

bildirishlar yo‘llaganlar. Ular 1910 yillardayoq Munavvarqorini “xavfli kishilar” va “qora ro‘yxat”ga kiritganliklari ayon bo‘ladi. Yuqoridagi fikrni 1912-yil 22-mayda Munavvarqori Abdurashidxonov Sirdaryo harbiy gubernatoriga o‘z iltimosnomasini yozib, unda: “Toshkentning Eski shahar qismida o‘z nomi bilan kitob savdosi uyushmasi ochish, shu asosda kitob magazini tashkil etib, musulmon va rus-tuzem maktablari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma va darsliklar sotishga ruhsat berishni so‘ragan. Mazkur magazinda ta’qiqlangan kitoblar sotilmasligi, magazin ochish uchun 1,5 rubl gerb solig‘ini to‘lashga tayyorligini bildirgan. Ushbu iltimosnoma hukumron doiralar o‘rtasida uzoq muhokama qilingan, Munavvarqorining qayta-qayta qilgan bu boradagi xatlari va murojaatlari javobsiz qoldirilgan. Nihoyat, 1912-yilning oxirida Toshkent Eski shahar (tuzemeslar qismi) qismi polismeystri o‘z xatida Munavvarqoriga harbiy gubernator kitob magazini ochishga ruhsat bermaganligini rasman ma’lum qilgan[2]. Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi (Oxranka, maxsus idora, 1907-yilda tuzilgan) bilan bog‘liq fond (461-fond)ning bir qator yig‘ma jildlarida Munavvar qori Abdurashidxonov va uning safdoshlari tomonidan “Ko‘mak” jamiyatining “Nizomi”ni ishlab chiqilishi va rasmiy hukumat ro‘yxatidan o‘tkazilishi bilan bog‘liq jarayonlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Arxiv hujjatlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, imperiya ma’murlari har qanday milliy uyushma tashkil etilishiga qat’iy qarshilik bildirishgan. Shu tufayli milliy uyushmalar “Gap” (“Mashrab”), “Majlis”, (“Kengash” va h.k.) nolegal (yashirin) ravishda vujudga kelgan. Biroq “Ko‘mak”ni tuzishda qonuniy asosda ish tutish tadbirlari ko‘rilib, uning “Nizomi” ishlab chiqilgan. Mazkur “Nizom”ning arab imlosida, o‘zbek tilidagi va ruscha tarjima nusxasi arxivda saqlanib, Turkiston general-gubernatorlik devonxonasiga ikki nusxada taqdim etilgan. Arxiv hujjatida keltirilishicha, “Ko‘mak” nizomini ishlab chiqishda Munavvar qori Abdurashidxonov va uning maslakdoshlari To‘lagan qori Kattaboev, Ahmadjon Bektemirov (“Ko‘mak” tuzilganidan so‘ng uyushma xazinachisi), Mullo Olim Qosimov, Toji Isamuhammedov, Mahmud Mulla Axtamov, Samig‘ qori, Abdulvohid qorilar faoliyat yuritishgan. Ular Toshkentning Eski shahar qismidagi Shayhontohur, Ko‘kcha, Beshyog‘och dahalarida istiqomat qiluvchi ziyoli, mulla, savdogar vakillar bo‘lishgan. Aftidan, “Ko‘mak” Nizomini hukumat a’zolari tomonidan tasdiqlash ancha qiyin kechgan. Nizom 1909-yilda uzoq munozaralardan keyin qabul qilingan bo‘lsa-da, “Ko‘mak” o‘z faoliyatini 1910-yil avgust oyiga kelib rasman va amalda boshlagan. “Ko‘mak”ning Jamiyat kengashi tarkibi shakllantirilgan va kengash raisi lavozimiga toshkentlik boy savdogar Saidkarim Saidazimboyev saylangan[3].

“Ko‘mak” Nizomi matni bilan tanishish asnosida amin bo‘lindiki, uning maqsadi aniqlashtirilgan. Nizomda: “Ko‘mak” musulmonlar jamiyati, Turkiston general-gubernatorining Sirdaryo viloyatida islom diniga e’tiqod qiluvchi musulmon aholini moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, amaliy yordam berish[4]” –maqsadini ko‘zlagan, kabi fikrlar keltirilgan.

Nizomda “Ko‘mak” o‘z faoliyati davomida qariya va nogironlar uyi hamda xastaxonalar ochish, g‘arib va qashshoqlarga non va osh tarqatish, jamoat oshxonalari tashkil etish, aholi kam ta’minlangan qatlamlariga tekin tibbiy yordam ko‘rsatish, etimxonalar ochish, tubjoy aholi bolalariga savod o‘rgatish, yoshlarga o‘rta va oliy ma’lumot olishda, xorijda o‘qishda amaliy yordam berish kabilar qayd etilgan[5].

“Ko‘mak”ka a’zo bo‘lib kirganlar uchun bir yillik badal puli 1 rubl 50 kop. bo‘lib, doimiy va haqiqiy a’zolar bir yo‘la 6 rubl jamiyatga a’zolik badali to‘lashgan[6]. Munavvar qori Abdurashidxonov targ‘iboti tufayli “Ko‘mak” a’zolarining soni tez o‘sib borgan. 1910 – 1911-yillarda “Ko‘mak”

a’zolarining soni 300 nafar deb ko‘rsatilgan, arxiv manbalarida ular 450-500 taga etganligi, shuningdek, Samarqand, Farg‘ona, Verniy (Olmaota)da unga xayrixohlar soni ko‘p bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilgan[7]. 1910 yilda “Ko‘mak” uyushmasining mablag‘ jamg‘armasi 4000 rubl bo‘lib, birinchi yilda undan 500 rubl xarajat qilingan. “Ko‘mak” ochgan maktablarda o‘quvchilar ehtiyojiga bir haftada 50 kop; muallimlarga esa 1 rubl 50 kop. xarajat qilingan. Jamiyat a’zolarining ijtimoiy tarkibi kengayib, unga mudarrislar, tatar va turk ziyolilari, matbaachilar, kitob do‘kondorlari, noshir va savdogarlar a’zo bo‘lib kirganlar[8].

Arxiv manbalari bilan tanishishda davom etar ekanmiz, Munavvar qori va maslakdoshlari hamkorligida amalga oshirilgan hamda imperiya hukumatiga mos tushmaydigan ma’lumotlarga duch kelamiz. “Munavvar qori maslakdoshi Samin qori bilan hamkorlikda 4 ta nolegal gazeta chiqarmoqda. (gazetalar nomi qayd etilmagan. –Sh.H.); Ularda o‘z milliy qarash va g‘oyalarini ilgari surmoqda. U aholini milliy qo‘zg‘atishga (uyg‘otishga) qaratilgan gazetalarni Konstantinopol (Istanbul)dan muntazam olib turibdi. Turkiya (Usmoniylar saltanati)dan unga maxsus taklifnoma kelgan, Turkiya safariga tayyorgarlik ko‘rmoqda.”[9] – deyilgan arxiv hujjatida. Aftidan, Munavvar qori etakchilik qilayotgan “Ko‘mak” a’zolari uyushmaga va uning a’zolariga xiyonat qilmaslikka qasamyod qilishgan. Imperiya ayg‘oqchilaridan biri (“Hoji” laqabli) ma’lumotlaridan birida “Ko‘mak” a’zosi Shayhontohur mullasi Abdulvohid hibsga olinib, qattiq so‘roq qilingan. Undan Munavvar qori Abdurashidxonov “panislomchi”, “panturkchi” ekanligiga yozma ko‘rsatma berish talab qilingan. Biroq Abdulvohid qori qasamyodiga sodiq qolib, so‘roqda Munavvar qori hech qanday “millatchi” emas, u faqat o‘z xalqiga moddiy va ma’naviy jihatdan ko‘mak bermoqchi, deb ko‘rsatma bergan. Uni “Ko‘mak” a’zolari katta mablag‘ evaziga (arxivda pul mablag‘i ko‘rsatilmagan. – Sh.H.) hibsdan ozod qilganlar[10]. Yuqoridagi dalil Imperiya ma’murlari poraga moyil ekanligi, katta pul evaziga “xavfli” deb hisoblangan kishilarini ham ozod qilib yuborganligi ayon bo‘ladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. “Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi” ayg‘oqchilari Munavvar qori va “Ko‘mak” a’zolari turk dunyosi hamda islom dunyosida taniqli bo‘lgan shaxslar bilan aloqa qilishga harakat qilib kelgan, deb ma’lumot berganlar. Arxiv manbasida Usmoniylar salatanati (Turkiya) sultoni Abdulhamid II (hukmronligi: 1877 – 1909-yy.) orqali “Ko‘mak”chilar turk yirik ulamosi Shayx Ahmad Asilzoda va xitoylik islom ulamosi Shayx Shahidlar bilan aloqa o‘rnatishga harakat qilinganligi qayd etilgan. “Ko‘mak” a’zolari faoliyatida tatar ziyolilari bilan aloqa o‘rnatishga, hamkorlik qilishga harakatlar kuchli bo‘lgani ham alohida qayd etilgan[11].

Arxiv ma’lumotlarining 1910-yil 12 – 15-noyabrda “Umid Birodarligi” kitob savdosi va uyushmasini tashkil etish bilan bog‘liq qismida, Munavvar qori Abdurashidxonov uning dasturi (Nizomi)ni tuzganligi, o‘z dasturini davlat dumasi Turkiston vakillariga taqdim etganligi qayd etilgan. Shundan so‘ng, Sirdaryo harbiy gubernatori Munavvar qori haqida atroflicha, to‘liq ma’lumot to‘plash uchun TRQBga maxsus buyruq bergan. Imperiya ayg‘oqchi idorasi o‘z ma’lumotnomasida: “Munavvar qori so‘l qarashga ega bo‘lgan, hukumat siyosatiga zid harakatlar qilgan, 1907-yilda “Shuhrat” gazetasini ochgan; yangi usul maktabi ochib, aholi o‘rtasida obro‘-e’tibor qozongan. 1910-yil 24-noyabrda qayta-qayta iltimosnomalar yozib, “Umid Birodarligi” kitob savdosi uchun ruxsat olishga erishgan. Uning Toshkent shahar Shayhontohur dahasi Darxon mahallasidagi hovlisidan tashqari Eski shahar qismida yana 3 ta shaxsiy kvartirasi ham bor. Kvartiralar birida yig‘inlar bo‘lib turadi, ikkinchi kvartirada bolalar o‘qitiladi, uchinchi kvartira xotin-qizlar bo‘limiga bo‘shatib berilgan. Uning

kvartiralari Toshkent Eski shahar 2-raqamli politsiya uchastkasida joylashgan. Shuningdek, arxiv manbasida Toshkent Eski shahar polismeysteri A.Kominikovning 302-bildirgisi (raporti) saqlangan bo‘lib, unda Sirdaryo viloyat harbiy gubernatoriga Munavvar qoriga “Umid Birodarligi”ni ochishga ruxsat bermaslik so‘ralgan[12]. Arxiv manbalari tahlil etilar ekan, Munavvar qori Abdurashidxonov nafaqat “Ko‘mak”ni tuzish, “Umid”, “Umid Birodarligi” uyushmasi va kitob do‘konini ochishga ruxsat olish, balki, bosmaxona ochib musulmon kitoblarini bosishga ham ijozat berilishini so‘ragan. 1912-yilda Toshkentda bosmaxona, toshbosmaxona, kitob va musiqa asboblari sotadigan magazinlar soni 26 ta bo‘lgan. Shu davrda Toshkentning Shayxontohur qismida 4 ta toshbosmaxona, 1 ta bosmaxona, Ko‘kcha qismida toshbosmaxona, Beshyog‘ochda fotostudiya va rus-tuzem bosmaxonasi bor edi[13].

Yevropa millati vakillariga bosmaxonalar ochishga oson ruxsat berilgan. Mahalliy xalq vakillardan Abdurahim Muhammadjonov, Mulla Homit, Mirzo Muhammad Muhammedov, Botirxon Sayitxonov, Abdulla Hakim Asadullaxo‘jaev, Mir Halim Mir Sarsonboev, Yoqub Xo‘ja Xo‘jaevlarning kitob va kanselariya sotadigan do‘konlari bor edi[14]. Biroq arxivda keltirilishicha, 1904 yilda “Umid” (Надежда) to‘garagi rahbari, musulmon yangi maktablari “inspektori” bo‘lgan Munavvar qoriga bosmaxona ochishga ruxsat berilmasligi qayd etilgan[15].

Shu sababli Munavvar qori Abdurashidxonov Toshkent shahridagi V.M.Ilinning xususiy bosmaxonasida turkiy (o‘zbek) tilidagi kitoblarni bostirgan. Unga “Umid Birodarligi”ni tuzishda ko‘mak bergan, Toshkent Eski shahar qismining Beshyog‘och va Shayhontohur dahasidan bo‘lgan Abduhakim Mullo Ikromov, Mulla Umar, Mulla Miro‘g‘li Oxunov, Ko‘kcha dahasi Sag‘bon mahallasidan Yusufxon Yoqubxo‘jayevlarning kitob do‘konlaridan darslik va o‘quv-qo‘llanmalar olib turlgan[16].

Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan 1914-yilda turk flotini kuchaytirish uchun Istanbul (Usmoniylar saltanati)ga pul mablag‘i bilan yordam berilganligi, to‘plangan pulni (miqdori arxivda ko‘rsatilmagan) Mulla Mir Hidoyatbek, Samig‘ qori Hidoyatbeklar olib borganligi ayon bo‘ladi[17].

Bu davrda Munavvar qori o‘z faoliyatini Samarqand, Qo‘qon, Farg‘olnada ham targ‘ib qilib, arxiv manbasida: “U (Munavvar qori) bir qator shaharlarda ayg‘oqchilari va odamlariga ega bo‘li bormoqda[18]” –deb xabar qilingan.

Aynan, 1912 – 1915-yillarda mahalliy va Yevropa millati vakillari rus ma’muriyatidan kitob magazinlarini ochish uchun ko‘p bor murojaat qilganliklari bilan bog‘liq fuqarolarning xatlari va murojaatlari saqlangan. Jumladan, rus millati vakili Georgiy Karobkovga 1912-yil 25-martda Toshkentning yangi shahrida kitob savdosi magazini ochishga ruxsat berilgan. 1913-yil 12-aprelda Toshkent shahar Shayhontohur qismi Zanginlik mahallasida yashovchi Muhammadxon Poshshoxo‘jayevga “Maktab” kitob firmasi bazasida musulmon va rus kitoblari sotish, kanselariya buyumlari sotadigan magazin ochishga ruxsat berilgan[19]. Ushbu magazinlar imperiya ma’murlarining qat’iy senzura nazorati ostida bo‘lgan. Qattiq nazorat va kuzatuvga qaramay Turkiston o‘lkasining turli shaharlarida faoliyat yuritgan kitob tarqatish uyushmalari va magazinlari yashirin ravishda aholiga milliy tuyg‘u va milliy o‘zlikni anglashga xizmat qiladigan, xorijdan keltirilgan kitob hamda gazetalarni sotishgandi. 1910-yillarda Qo‘qonning Eski shahar qismida joylashgan Is’hoq Sharipov kitob magazini va uni Yangi Qo‘qondagi kitob kioskasida Konstantinopol (Istanbul)dan haftalik gazeta “Istanbul yangiliklari” (turk tilida) yashirin holda kelib turgan. Shu sababli “Turkiston rayon qo‘riqlash bo‘limi” (Oxranka) idorasi

ayg‘oqchilaridan biri Is’hoq Sharipov magazini va kioskasi ishonchsiz” – deb ma’lumot bergandi[20]. Shuningdek, 1910-yilda bir guruh milliy ziyolilar Toshkent shahrida “Saodat” nomi bilan kitob nashriyoti bo‘limini ochishgan. Unda bir qator progressiv fikrli yoshlar birlashib, ular o‘z tashkilotini “Umid” deb nomlashgandi. “Umid” a’zolari nashriyotda milliy o‘zlikni anglash targ‘ibotida Turkiya va Turkiston shaharlarida bosilgan kitoblarni aholi orasida tarqatish kabi vazifalar bilan shug‘ullanishgan. Toshkent shahrida “Umid”ning bir qator magazinlari, kitob saqlash ombori ham bo‘lgan. Nashriyot filiallari Orenburg guberniyasiga qarashli Troisk shahrida va Sibirning Tyumen shahrida ham bo‘lgan[21]. 1910 – 1914-yillarda Turkistonda taraqqiyparvarlar maorifchilik, maktabchilik harakatida faol bo‘lganligi arxiv hujjatlaridan o‘rin olgan. Ayniqsa, “Ko‘mak” jamiyati a’zolari bu yo‘nalishda oldingi saflarda bo‘lishgani ayon bo‘ladi. “Ko‘mak” jamiyatining a’zosi, asli Sibir guberniyasidan bo‘lgan Mullo Hoshim 1909-yilda do‘sti Mulla Olim Qosimov bilan yangi usul maktabi ochgan. Ular bir yil o‘tib, Makka va Madina hajiga jo‘nashgan, biroq Turkistonga qaytishmagan” – deb ma’lumot beriladi arxiv hujjatida. Ikkinchi bir manbada esa, “Ko‘mak” jamiyati xazinachisi, yangi usul maktablaridan birining ta’sischisi Ahmadjon Bektemirov “Shuhrat” va “Osiyo” gazetalari ta’sischilaridan biri ham hisoblanadi”[22] deb qayd etilgan.

Turkiston maxfiy xizmati (Охранка) ma’lumoticha, Turkistondagi maktabchilik va maorifchilik harakati Usmoniylar saltanati (Turkiya)dagi “Ittihod va Taraqqiy” (“Birlik va Taraqqiyot”) tashkiloti va tatar ma’rifatparvari I.G‘aspirali (1851 – 1914-yillar) faoliyati bilan bog‘liq. Rossiyadagi tatar muallimlari Turkistonda asosiy o‘rin va mavqega ega bo‘lishgan. Tatar muallimi A.Maqsudov 1910 – 1911-yillarda Buxoro shahrida bo‘lib, bu shaharda 16 ta no‘g‘ay (tatar) maktabi borligini qayd etgan. U Buxorodan Qo‘qon shahriga o‘tib, bu shaharda 60 nafar millatparvar yoshlar hatto, yagona maktab yoxud biror bir uyushmaga ham birlashmaganliklariga afsus bildirgan[23].

Toshkentdagi “Ko‘mak” uyushmasi a’zosi To‘lagan qori Kattaboev (Shayhontohur dahasi Darxon mahallasidan) Xasxon madrasasida 70-80 nafar ilmu-toliblarga tahsil bergan. Mudarris To‘lagan qori hamkasbi Abduvohit Qoriyev bilan Makka va Madinaga haj safarida bo‘lib, vatanga qaytishda Istanbul (Turkiya) va Qohira (Misr) dan ilmu-toliblarga darslik va o‘quv qo‘llanmalar, gazeta va jurnallar olib kelishgan[24]. Ushbu kitob va matbuot organlari madrasa talabalari milliy ongini o‘sishiga xizmat qilgan. Turkistondagi milliy uyushmalarning a’zolari taraqqiyparvarlar Rossiya imperiyasidagi musulmon jamoalariga ham o‘quv qo‘llanma hamda milliy tildagi matbuot namunalari etkazib berishda amaliy yordam ko‘rsatganlar. 1910-yil 3-fevralda rus ayg‘oqchiligi maxfiy ma’lumotida: “Toshkent maschitlaridan birining imomi Mahmud Mulla Axtamov va ilg‘or fikrli savdogar Toji Isamuhamedovlar Sankt-Peterburgda musulmon jamoalari uchun o‘quv qo‘llanmalari, gazetalar bilan amaliy yordam berish uchun jo‘nab ketganliklari Peterburg politsiya departamentiga xabar qilinadi[25].

Turkistonda tatarlar tomonidan maktablar, maorif muassasalari ochishga alohida e’tibor qaratilgani hujjatlardan namoyon bo‘ladi. 1910-yil 14-oktyabrda Toshkentda musulmonlarning 50 kishidan ortiq vakillari qatnashgan maxsus yig‘ilish bo‘lgan. Majlisda musulmonlar orasida xalq ta’limi, musulmonlar dam olishi va bayramlari komissiyasi tuzilib, unga Ali Asqar Husaynovich Sutyushev rais qilib saylangan. Domulla Mavdut Axtamov musulmon bolalariga diniy, dunyoviy bilimlar berish va ta’limni o‘z ona tillarida bo‘lishi qarorini qabul qilinishiga erishgan[26].

Buxoro amirligida yangi usul maktablaridagi ta'lim- tarbiya amirlikda XIX asr oxirida vujudga kelgan. Yangi maktablarga usuli-savtiya, tadrijiya (rivojlanuvchi tovush usuli) deb nom berilgan. Ismoilbek G'aspirali (1851 – 1914-yillar) taklif qilgan usulda maktab tashkil etgan va gazeta nashr qilgan yoshlar "jadidlar" deb atala boshlangan. Boshqacha aytganda, musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar "jadidlar" deb atalgan. Ammo, ular o'zlarini jadid - deb atamas edilar. Ko'pincha ular o'zlarini taraqqiyparvarlar, munavvarlar va keyinchalik yoshlar deb atashgan. "Jadid" atamasi arabchadan olingan bo'lib, "yangi", yangilik tarafdori-degan ma'noni bildiradi. Ular tomonidan tashkil etilgan maktablar ham yangi usul yoki jadid (usuli jadida) maktablari deb nom olgan.

XULOSA. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davridan saqlangan arxiv manbalarida Turkiston milliy ziyolilari va taraqqiyparvarlari haqida boy ma'lumotlar mavjud. Jumladan, Munavvar qori Abdurashidxonov va uning safdoshlari faoliyatiga salbiy jihatdan buyuk davlatchilik siyosati nuqtai-nazaridan yondashilib, ma'lumotlar keltirilsa-da, ularni tanqidiy tahlil uslubi va istiqlol mafkurasi nuqtai-nazaridan o'rganish millatparvar yurtdoshlar haqida yangi, xolisona ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi. Aynan XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Munavvar qori Abdurashidxonov millat ongini uyg'otish, jamiyatni modernizatsiya qilish, milliy ozodlikka erishish, ma'rifatchilik borasida butun vujudi bilan faoliyat yuritgani arxiv hujjatlari orqali ayon bo'ladi. Uning faoliyati jadid maktablari ochishda "Umid" (Nadejda) uyushmasi, "Ko'mak", "Umid Birodarligi" kitob savdosini tashkil etishda, ozodlik uchun kurashda tashviqot-targ'ibotni kuchaytirishda, taraqqiyparvar insonlarni o'z atrofida birlashtirishda, bosamxona kitob do'konlari ochish uchun xarajat kabi ko'p qirrali jihatlarda namoyon bo'ladi.

1. Munavvar qori Abdurashid-xonovning faoliyati qirralarini ochishga xizmat qiladigan arxiv manbalarini to'la aniqlashga erishish orqali bu boradagi ilmiy xulosalarni yanada boyitish.
2. Sovet hokimiyati yillari davriga oid ochiq va maxfiy arxiv fondlaridagi hujjatlarni atroflicha o'rganish orqali Munavvar qori Abdurashidxonov haqidagi tarixiy haqiqatni batafsil ochib berishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar, monografiyalar yaratish.
3. "Munavvar qori Abdurashid-xonov va uning maslakdoshlari" Munavvar qori va Turkiston "Buxoro jadidlari", "Munavvar qorining fojiali taqdiri", "Tarixga daxldor inson" kabi sarlavhalar ostida risola va maqolalar yozish va h.k.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-17-фонд, 1-рўйхат, 16998-йиғма жилд, 149-варақ.
2. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-17-фонд, 1-рўйхат, 16698-йиғма жилд, 158-варақ.
3. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 54, 55, 56, 57-варақлар.
4. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 949-йиғма жилд, 1,2,3,4-варақлар.
5. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 949-йиғма жилд, 8,10,11,12-варақлар.
6. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 949-йиғма жилд, 8,10,11,12-варақлар.
7. Добромыслов А.И. Ташкент: прощлое и настоящее. –Ташкент-1912. –С. 432; ЎзМА. И-461 фолнд. 1-рўйхат, 949-йиғма жилд, 3,4-варақлар.
8. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 56,57-варақлар.

9. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 15-варақ, 15-варақнинг орқаси, 16-варақ, 16-варақнинг орқаси
10. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 20-варақ, 20-варақнинг орқаси, 21, 22, 23-варақлар ва уларнинг орқаси.
11. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 43,44,45,46,47-варақлар. Ушбу варақларнинг орқа томони.
12. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 901-йиғма жилд, 1,2,3-варақлар. 1312-йиғма жилд, 37-варақ, 37-варақнинг орқаси.
13. ЎзМА; И-17-фонд, 1-рўйхат, 16998-йиғма жилд, 211, 212, 213, 214, 219-варақлар.
14. ЎзМА; И-17-фонд, 1-рўйхат, 16998-йиғма жилд, 220, 221, 222, 223, 224,225, 226, 227-варақлар.
15. ЎзМА; И-17-фонд, 1-рўйхат, 16998-йиғма жилд, 150, 152, 153-варақлар, 158-варақ.
16. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 901-йиғма жилд, 4,5,6-варақлар.
17. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 1312-йиғма жилд, 378,379-варақлар, 901-йиғма жилд, 7,8,9-варақлар.
18. ЎзМА; И-461-фонд, 1-рўйхат, 1312-йиғма жилд, 380, 381-варақлар
19. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-17-фонд, 1-рўйхат, 16698-йиғма жилд, 54,70-варақлар.
20. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 948-йиғма жилд, 36-варақ.
21. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 41-варақ, 41-варақнинг орқа томони.
22. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 948-йиғма жилд, 4,5-варақлар.
23. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 948-йиғма жилд, 11,39-варақлар.
24. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 948-йиғма жилд, 13,14-варақлар.
25. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 942-йиғма жилд, 5-варақ.
26. Ўзбекистон Миллий Архиви, И-461-фонд, 1-рўйхат, 948-йиғма жилд, 46,47,48-варақлар.